

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAXMUDOV JASURBEK XUSINOVICH

PAHLAVON MAHMUD VA FUTUVVAT MANBALARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on Philological Sciences**

Махмудов Жасурбек Хусинович Pahlavon Mahmud va futuvvat manbalari.....	3
Махмудов Джасурбек Хусинович Источники Пахлавана Махмуда и великодушие.....	27
Makhmudov Jasurbek Khusinovich Sources of Pahlavan Mahmud end Genorosity.....	51
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	55

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAXMUDOV JASURBEK XUSINOVICH

PAHLAVON MAHMUD VA FUTUVVAT MANBALARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/Fil267 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy maslahatchi: **Boltaboyev Hamidulla Ubaydullaevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yusupova Dilnavoz Rahmonovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Xasanov Nodirxon Dadaxanovich
Filologiya fanlari doktori, professor

Tojiboeva Muqaddas Abdurahimovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "16" may soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri Olmazor tumani Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99890) 318-25-30; e-mail: www.nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (71 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri Olmazor tumani Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (99890) 318-25-30; e-mail: www.nuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «28» aprel da tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ daqiqa _____ raqamli reestr bayonnomasi)



R.H.Shirinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filol.f.d., professor

N.Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi v.v.b., f.f.d., dotsent

M.Kurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida Pahlavon Mahmud va futuvsat manbalarini adabiy jarayon nuqtai nazaridan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Chunki adabiyotda polvonlar hayoti asosan futuvsat, javonmardlik va axiylik axloqlari bilan chambarchas bog‘liq holda jamiyatda yuksak insoniy fazilatlarga undovchi saxovat, shijoat, mardlik kabi xislatlarni namoyon qiluvchi sifatlar takomilini ifodalaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida Pahlavon Mahmud hayoti va futuvsat manbalariga tasavvufiy yo‘nalish sifatida qaralgan hamda tariqatlarning tadrijiy rivojlanish bosqichi darajasida o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud faoliyati va futuvsat manbalari zamirida jamiyatdagi shaxs axloqi masalasi turadi, bunday futuvsat g‘oyalari muallifning adabiy-badiiy asarlariga singdirilgan. XIX asrdan keyingi o‘zbek futuvsatnomalari esa, asosan, hunarmandchilik risolalari shaklida namoyon bo‘ladi. Biroq ular haligacha ilmiy nuqtai nazardan yaxlit monografik tarzda o‘rganilmagan.

Endilikda “o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”¹ ekan, o‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud faoliyati va futuvsat manbalarini o‘rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, futuvsat zamirida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, xalq xizmatida bo‘lish, barchaga saxovat ko‘rsatish singari da’vatlarda yosh avlodni tarbiyaviy tomondan shakllantiruvchi yuksak axloqiy omillar yashiringan.

O‘zbek adabiyoti tarixida Pahlavon Mahmud siymosi javonmardlik tariqatining ilk peshvosi sifatida gavdalanadi. O‘zida ma’naviy va jismoniy quvvatni jamlagan bu zotning hayoti va faoliyati ko‘plab tazkira, manoqib, lug‘at va ilmiy asarlarda aks etgan hamda ularda Pahlavon Mahmudning tariqati turlicha ifodalangan. Pahlavon Mahmud shaxsi forsiy va turkiy tildagi ko‘plab manbalarda kurashchi, javonmard, ruboiynavis sifatida zikr qilinadi². Aslida fors tilidagi manbalarda Pahlavon Mahmudning hayoti, ijodi hamda futuvsatdagi o‘rni ko‘p yoritilgan bo‘lsa ham turkiy manbalar, xususan, o‘zbek tilidagi tazkira va manoqiblar kabi to‘liq va ishonchli emas. Shularni hisobga olgan holda Pahlavon Mahmud va futuvsat manbalari hamda ularning mazmun-mohiyatini o‘zbek adabiyotini boyitishi nuqtai nazaridan tahlil qilish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. www.xabar.uz. 07.08.2018.

² افشارى مهراڻ. آيين جوانمردى. تهران: دفتر پژوهشهاى فرنگى، 1384، ص: 112؛ زرین کوب، عبد الحسین، جستجو در تصوف ايران، تهران، امير کبير، 1358، ص: 446؛ کرمى، مجتبى، زندگينامه و رباعيات پهلوان محمود پوريلى ولى. تهران: روزنه، 1386، ص: 120؛ خلعتبرى، اللهيار، محبوبه شرفى. تاريخ خوارزمشاهيان. تهران: ستزمان مطالعه و تدوين کتب علوم انسانى دانشگاهها، 1380، ص: 136. محمد کاذم يوسفپور، نقد صوفى. تهران: روزنه، 1384.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi 124-F sonli farmoyishi mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Pahlavon Mahmud va futuvvat masalalari jahonning yetakchi fan va ta’lim markazlarida, jumladan, Tehron davlat universiteti (Eron), Ural federal universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Institute for the Study of Human Knowledge and California University (AQSh), Kırşehir Ahi Evran Üniversitesi (Turkiya), Türkiye Diyanet vakfı başkanlığı (Turkiya), Tojikiston davlat pedagogika universiteti (Dushanbe), Belarus davlat universiteti (Minsk) kabi ilmiy muassasalarda tadqiq etilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida futuvvat, javonmardlik va axiylikka doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan⁴. Pahlavon Mahmud faoliyati va futuvvat maslagi ko‘plab xorij adabiyotshunoslari

³ <http://ensani.ir/fa/article>; <https://elar.urfu.ru/handle>; <https://akademik.ahievran.edu.tr>; <https://islamansiklopedisi.org.tr>; <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-01/dissertatsiya-sotsialno-eticheskoe-techenie-ahi-i>; <https://www.yumpu.com/en/document>; <https://istina.msu.ru/profile/aleskerova>; <https://idriesshahfoundation.org> <https://www.wattpad.com>; <https://www.jstor.org/stable> <http://ru.islamicdata.ru/index.php>

⁴ فتوت نامه: تاریخ، آداب و رسوم/تالیف محمد ریاض. به انضمام رساله فتوتیه/ علی همدانی؛ به اهتمام عبد الکریم جریزه دار. - تهران: اساطیر، پهلوان محمود در منابع و کتابهای آسیای مرکزی و ترکمنستان/ رحمان بردی قدروف، ایرانشناخت شماره هفتم، زمستان 1382. 224 ص. تاریخ خوارزمشاهیان / اللهیار خلعتبری، محبوبه شرفی. - تهران: سازمان مطالعه و تدريس کتب علوم انسانی دانشگاهها، 1376. 98-125 ص؛ 1380. 136 ص؛ آیین جوانمردی (مرام و سلوک طبقه عاقله ایران) / مهراڻ افشاری. - تهران: دفتر پژوهشهای فرهنگی 1384. 112 ص؛ Raḥşan Gürel. Razavınm Fütüvvet-namesı (Fütüvvet-nama-i kebir veya Miftahud-dakayık fı beyan-l-futuvveti vel-aqayık). - İstanbul, 1992; M.Fatih Köksal. Ana kaynaklarıyla Türk Ahiliği. Doğu Kültüphanesi. - İstanbul, 2015; Ahilik ve meslek ahlakı. Editörler: doç dr. Ömer Akdağ. Müdür Yrd. Meltem Kurtuluş - Konya: Karatay Üniversitesi Yayınları, 2018. - s. 415; Sur Les Traces des Premiers Akhis. par. C.Cahen, Strasbourg. S.81-91; F.Taeschner, Beiträge zur Geschichte der Achis in Anatolien, dans Islamica, 1929; F.Taeschner, Der anatolische Dichter Naciri und sein Futuvvetnameh (Abhandlungen für die Kunde des Morgenlandes, XXIX, 1) Leipzig 1944; Cf. G.Salinger, Was the Futuwwa an oriental form of chivalry? Dans Proceedings of the American philosophical society, XCIV, 1950.; Willem Floor. Guilds and futuvvat in Iran //Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. Vol.134, No 1(1984), pp.106-114.

Imom Abu Abdurahmon Sulamiyning “Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima” kitobining arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima etilishi ham keyingi paytda tasavvuf va tariqatlar, xususan, javonmardlik bobining yoritilishida asosiy manbalardan biri bo‘ladi¹². Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida ham tasavvufning asosiy manbalari xususida ma’lumotlar berilish bilan birga futuvvat g‘oyalariga munosabat bildirilgan¹³.

K.Rahimov tomonidan tayyorlangan “Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar)” kitobida Markaziy Osiyo so‘fiylik maktablari hamda tasavvuf tariqatlari tarixi qatorida javonmardlik ham yoritib beriladi¹⁴.

Bu ishlar, asosan, futuvvat manbalarini tadqiq etish yo‘lidagi ilmiy urinishlar bo‘lganiga qaramay, o‘zbek adabiyotidagi futuvvatnomalar va ularning nazariy manbalari hamda turkiy adabiyotda Pahlavon Mahmud ijodining o‘rni masalasi bugungi kungacha to‘liq o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta’lim ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasining “Badiiy matn va uning poetikasi” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek adabiyotida diniy, tasavvufiy va adabiy manbalar asosida Pahlavon Mahmud, futuvvat, axiylik va javonmardlik maslagining shakllanish manbalarini aniqlash, o‘zbek futuvvatnomalari va qissalarining vujudga kelishi hamda rivojlanish jarayoni hamda ularning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Futuvvat va axiylik tushunchalarining nazariy asoslarini belgilash, ularning tasavvuf adabiyotidagi o‘rnini ko‘rsatish;

futuvvat va axiylikning tasavvufiy manbalarini aniqlash, ular tarkibidagi qarashlarni adabiy jarayonga olib kirish;

XV-XIX asr adabiy manbalarida Pahlavon Mahmud va futuvvat masalalari qay darajada yoritilganini tahlil qilish;

turkiy va forsiy manbalarda Pahlavon Mahmud va futuvvat maslagiga doir qarashlarni ilmiy sharhlash;

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi javonmardlik haqidagi qarashlarni valiylik faoliyati manbalari bilan qiyoslash;

manqabaviy manbalardagi Pahlavon Mahmud va futuvvatga doir ma’lumotlarni aniqlash va adabiy jarayonga jalb qilish;

“Kanzu-l-haqoyiq” masnaviysining muallifi, Pahlavon Mahmud bilan aloqadorligi va masnaviyning futuvvat adabiyotidagi ahamiyatini tadqiq qilish;

o‘zbek adabiyotida qissa janrining kelib chiqishida payg‘ambarlik qissalaridagi fatiylik va axiylik haqidagi rivoyatlar bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish;

¹² Имом Абу Абдурахмон Суламий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида муқаддима. – Т.: Hilol-Nashr, 2020.

¹³ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Hilol-Nashr, 2021.

¹⁴ Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Т.: Akademnashr, 2020.

o‘zbek tilidagi “Majmuai rasoyil” asarining futuvvat adabiyotidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbek mumtoz adabiyoti manbalarida aks etgan futuvvat va axiylik haqidagi qarashlar, “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”dagi valiylar hamda Pahlavon Mahmud faoliyatiga doir o‘rinlar, o‘zbek, arab, fors tilidagi futuvvatga oid manbalar.

Tadqiqotning predmetini diniy, tasavvufiy va adabiy manbalardan Pahlavon Mahmud va futuvvat maslagi g‘oyalarini aniqlash, ularning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini baholash, o‘zbek futuvvatnomalari hisoblangan risolalarni tadqiq va tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, biografik kabi metodlardan; tizimlashtirish va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

futuvvat va axiylik tushunchalarining ildizi Qur’oni karimda va fatiylik asoslari payg‘ambarlik qissalarida aks etganligi manbalar orqali ko‘rsatib berilgan;

futuvvatning manbalariga ko‘ra davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan, uning ilk davri payg‘ambarlik qissalaridan aks etgan bo‘lsa, ikkinchi davr o‘zbek mumtoz adabiyotida aks etgani, badiiy asarlar mazmuniga singdirilgani asoslab berilgan;

o‘zbek mumtoz adabiyotida qissa janrining kelib chiqishi va genezisi futuvvat va axiylik tushunchalari bilan bog‘liqligi yoritilgan;

“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” tazkirasidagi avliyolarning futuvvat va axiylikka mansubligi hamda ularning Pahlavon Mahmud faoliyati bilan alloqadorligi ko‘rsatilgan;

Pahlavon Mahmud biografiyasiga oid o‘zbek va fors tilidagi manbalardagi qaydlarning o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi asosida turkiy manbalardagi ma’lumotlarning nisbatan to‘liqligi ochib berilgan;

XIX–XX asr boshlarida yozilgan o‘zbek futuvvatnomalari boshqa tildagi futuvvatnomalardan farqli o‘laroq xalq hunarmandchiligi risolalari shaklida yetib kelganligi tahlillar natijasida asoslangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pahlavon Mahmud va futuvvat manbalari tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosalar o‘zbek adabiyotshunosligi, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, shuningdek, matnshunoslik va manbashunoslik fanlaridan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

turk, arab, fors tilidagi manbalar tahlili asosida o‘zbek adabiyotida futuvvatnomalarning o‘rni yoritilgan;

tadqiqotda o‘zbek adabiyotida etnogenetik muammolarni yoritishda futuvvat va axiylik haqidagi qarashlarning ahamiyati dalillangan;

Pahlavon Mahmud va futuvvat maslagining shakllanish hamda rivojlanish jarayonida futuvvat manbalarining xizmat qilishi ochiqdangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek adabiyoti tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asoslilik, metodologik mukammalligi, qo‘yilgan masalalarning aniqligi,

olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda arab, fors va turkiy manbalar asosida Pahlavon Mahmud va futuvvat haqida ilm ahliga ma'lum bo'lmagan yangiliklar keltirilgani, futuvvat jarayonining ayrim jihatlari o'zbek mumtoz adabiyoti bilan bog'langani, milliy adabiyotshunosligimizning so'nggi yutuqlari sifatida ko'rsatilgani, o'zbek futuvvatnomalarini yuzaga keltiruvchi omillar haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida oliy ta'lim tizimi uchun o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, "Tasavvuf va badiiy ijod" ixtisoslik kursi bo'yicha majmua va o'quv adabiyotlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pahlavon Mahmud va futuvvat manbalarini tadqiq etish bo'yicha:

dissertatsion ish natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Pahlavon Mahmud nomidagi xayriya jamg'armasi Pahlavon Mahmud haqidagi maxsus kitoblarni tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati Pahlavon Mahmud nomidagi xayriya jamg'armasining 2023-yil 6-yanvardagi 1-son ma'lumotnomasi). Natijada "Pahlavon Mahmud: O'zbek ma'naviyati va kurash san'atidagi o'rni", "Berdim qalamimga so'z. Ruboiylar" (besh tilda) kitoblari nashr etilgan;

Pahlavon Mahmud va futuvvat manbalarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-30 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'pjildlik monografiyasini (7-jild) chop etish" fundamental loyihasida foydalanilgan (2023-yil 21-yanvardagi 01/4-132-conli ma'lumotnomasi).

dissertatsion ish natijalaridan O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 2018-2020-yillar mobaynida bajarilgan PZ-20170925213: "O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozma devonlar katalogini tuzish" nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (2023-yil 30-yanvardagi 51-sonli ma'lumotnomasi).

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o'rganish ishini keng omma orasida targ'ib qilishda tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Sharq qo'lyozmalari" ko'rsatuvi ssenariylarini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokanalining 2023-yil 30-yanvardagi 06-22-89-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan, ko'rsatuv va ssenariylarining ilmiy-manbaviy saviyasi ortgan.

dissertatsion ish natijalaridan "Xiva langari" badiiy filmni suratga olishda foydalanilgan ("Hasan-films" studiyasining 2023-yil 20-yanvardagi 07-p-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy filmning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan, kino ssenariyning ilmiy-badiiy saviyasi boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, 3 tasi monografiya, 2 risola va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 29 ta maqola, jumladan, ularning 12 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, ilovalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 230 bet, ilovalar 133 betni tashkil etadi. Jami 363 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Diniy va tasavvufiy manbalarda futuvvat hamda axiylikning nazariy talqinlari**" nomli birinchi bobining birinchi "**Qur'oni karimda futuvvat va axiylik tushunchasi**" faslida futuvvat va axiylikning ildizlari ochib berilgan, payg'ambarlik qissalari bilan bog'liqligi asoslangan. Tasavvufga oid manbalarda futuvvat maslagining asl ma'nosi va maqsadini tushuntirishga ko'p e'tibor qaratiladi. VIII asrdan e'tiboran tasavvufga oid asarlarda keltirilgan so'fiylar tomonidan "futuvvat" so'zi aynan tasavvufiy tushuncha sifatida qo'llana boshlangani ma'lum. O'zini kichik va boshqalarni ulug' sanamoq, barchaga hurmat ko'rsatmoq, do'stlarning maqtovidan uzoqda yurmoq, o'ziga nisbatan ozor beruvchi xaloyiqga ham yaxshi muomalada bo'lmoq, bazlu ehson va kechirimli bo'lish, xalqni fazilatda ustun deb bilish hamda o'z aybini ko'ra olmoq kabilar xususida Pahlavon Mahmud yozadi:

Ko'zgunga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal,
Shuncha ko'p ko'rindi o'z ayblarim,
O'zgalar aybini unutdim tugal.

Futuvvatning ikkinchi darajasi o'zingga fazlu marhamat tilamaslik va birovlardan yegan dakki uchun xusumat va o'ch olishdan kechish bo'ladi. Futuvvatning uchinchi darajasi o'z nafsiga nisbatan futuvvat ko'rsatmoq, ya'ni Xudodan boshqasini ko'rmaslik, o'z ishlarini ajru mukofot olish uchun emas, Haq itoatini xolislanilloh bajarmoq hisoblanadi¹⁵.

¹⁵ Қаранг: Сажходий Ж. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти ирфоний. – Техрон: Тахурий, 1370/1992. – С. 618-619.

Futuvvat maslagiga kirganlar esa “umrini do‘stlar xizmatiga bag‘ishlash, faqat yaxshilikni o‘ylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo‘lish, borini o‘zgaralar bilan baham ko‘rib, muhtojlar hojatini chiqarish, piru ustozlar, do‘st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, halol-pokiza insonlar suhbatini qozonish”¹⁶ kabi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan kishilar bo‘lishgan.

Tasavvuf adabiyotida “abul-fatiiyyon”, ya’ni fatiylar otasi deb ulug‘langan Ibrohim xalilulloh siymosi o‘zbek mumtoz adabiyotida saxovatpesha zot sifatida tilga olinadi. Qur’oni karimning Anbiyo surasida Ibrohim a.s. haqidagi oyatda shunday yoziladi: (60) *قَالُوا سَمِعْنَا فَتًى يَذُكُرُهُمْ يُقَالُ لَهُ إِبْرَاهِيمُ* “Ular (ayrimlari) aytishdi: “Ularni gapirib (ayblab) yuradigan Ibrohim degan bir yigitni eshitdik” (Anbiyo, 60). Oyati karimada Ibrohim a.s.ning “fatan – notanish bir yigit” kalimasi bilan kelishi futuvvat maslagining yashirin suluk ekaniga ishoradir. Bu bilan Yaratganning o‘zi futuvvat maslagi yashirin fazilat ekani, undagi amallar ham ayricha bo‘lishi lozimligiga ishora qilingan.

Futuvvat, asosan, yakka shaxs faoliyati, odob-axloqi bilan, axiylik esa ikki yoki undan ortiq kimsaning uyushmog‘i bilan bog‘liq tushunchalardir. Qur’oni karimning Furqon surasida: *وَلَقَدْ آتَيْنَا مُوسَى الْكِتَابَ وَجَعَلْنَا مَعَهُ أَخَاهُ هَارُونَ وَزِيْرًا*

“Qasamki, Biz Musoga Kitob (Tavrot) ato etdik va birodari Horunni u bilan birga vazir etdik. (25:35)” deyilgan. Ma’lum bo‘ladiki, tarixda birinchi axiy – bu Horun a.s. bo‘lgan. Futuvvat sohibi Muso a.s. Xizrni yo‘qlab yo‘lga chiqqanida, uning yonidagi hamrohi Yuvsha’ a.s. Qur’oni karimda fatiy deb aytiladi; Muso bu yerda fatiyning xo‘jayini tarzida keltiriladi. Demak, Muso ham futuvvat (Ibrohim a.s.dan keyin) va axiylik tushunchalarining kelib chiqishida payg‘ambar timsolida gavdalangan.

“Axiy” so‘zining Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atut turk” va Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida keltirilgan “qo‘li ochiq, javonmard” ma’nolari turkcha “aqi” asosidan kelib chiqqan degan mulohazalar bor. O‘zbek adabiyotida axiylik saxiylikning yuqori darajasi sifatida, bek va a‘yonlarni shu fazilatga targ‘ib qilish deb tushuntiriladi:

Bu dunyâ talusî axî er turur,
Axîlîq şaraf jâh jamal arturur
Sewûlmäk tiläsân kişilär ara
Axî bol, axîlîq seni sewdûrür¹⁷.

Shu ma’noda o‘zbek mumtoz adabiyotida axiylik uyushma sifatida emas, balki yaxshi fazilatlar yig‘indisi, o‘zidan ko‘ra xalqini o‘ylaydigan shaxs timsolida talqin qilinadi.

Bobning “*Tasavvufiy manbalarda futuvvat talqini*” deb nomlangan ikkinchi faslida tasavvufiy manbalar asosida olimlarning futuvvatga doir qarashlari tahlil qilinadi. Tasavvuf va futuvvat ilk davrlardayoq yonma-yon paydo bo‘lgani, payg‘ambarlarning xislatu fazilati sifatida ta’rifu tavsif qilingani qayd etiladi.

¹⁶ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 113.

¹⁷ Югнакий, Адиб Ахмад. Хибат ул-хақойиқ [Матн]. Қ.Содиқов транскрипцияси, талқини ва таҳлилида. – Т.: Akademnashr, 2019. – Б. 89.

Mumtoz manbalarda futuvvatning boshlanishi aynan tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq ekani aytilgan. Islom tasavvufi va futuvvat tushunchalarining birgina Ibrohim a.s.da mujassam bo'lishi fikrimizning dalilidir. Zero, birinchidan, "aslamtu", ya'ni "islomni qabul qildim" degan kishi birinchi payg'ambar aynan Ibrohim a.s. edi. Ikkinchidan, Haqni izlashdagi Ibrohim a.s.ning harakatlari va mushohadalari islom tasavvufining namunasi edi. Uchinchidan, Namrud alayhi-l-la'na va uning atrofida gilar butxonadagi butlarni shijoat bilan sindirishi uning futuvvatidan dalolat edi. Demak, Navoiy tomonidan "Abuz-zifyon" – Mehmonlar otasi deb ulug'langan Ibrohim a.s. siymosida biz ushbu muqaddas maslakning o'zbek adabiyotidagi asosini ko'ramiz.

Olimlar orasida tasavvuf va futuvvatni ayri-ayri talqin etgan holatlar ham uchraydi. Ba'zi mutaassib diniy ulamolar asarida tasavvuf va futuvvatni dindan ayri-ayri talqin etadilar. Jumladan, futuvvat jamoalari muxoliflaridan "Talbisu iblis" asari muallifi Ibn Javziy (1292-1350) futuvvatni bid'at, din imoratiga shikast yetkazuvchi hamda zohir aralashgan xo'jako'rsinlik desa, "Naqd ul-ilm val-ulamo" asari muallifi Ibn Taymiyya Hanbaliy (1263-1328) "bu xurofotiy ishlarning boshini payg'ambar akramga va hazrati Aliga bog'lashlari yolg'on gapdir, zero uning asli bid'at tarqatuvchi Abbosiy xalifa Nosiriddinullohga borib taqaladiki, islom ummati uchun taqlid qilishga arzimaydigan, namuna bo'lolmaydigan ishdir", degan qat'iy fikrga keladi¹⁸. Bizningcha, bu noto'g'ri qarash bo'lib, Husayn Voiz Koshifiy yozadi: "Bilgilkim, futuvvat ilmi sharifmo'tabar ilmlardandir va tasavvuf bilan tavhid ilmining bir bo'lagidir"¹⁹. Tasavvufda bo'lgani kabi futuvvatda ham o'zlarining pir-murshidlari, odob-arkonlari, xirqa-kiyimlari, ramziy belgilari mavjuddir. O'zbek adabiyotida hazrat Navoiy birgina sarlavha, ya'ni "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" jumlasini bilan futuvvat va so'fiylik bir-biriga yaqin tushunchalar ekanini ifodalagan qo'ygan.

Dissertatsiyaning "XV-XIX asr manbalarida Pahlavon Mahmud va futuvvat" deb nomlangan ikkinchi bobi "*Forsiy manbalarda Pahlavon Mahmud va javonmardlik*" fasli bilan boshlanadi. Xivaning ma'naviy ustuni, xalq orasida "Pahlavon ota", "Polvoni pir" nomi bilan mashhur bo'lgan Pahlavon Mahmud Puryorvaliyning ma'naviy ustozlari aslida xivalik Ahmad bin Umar Xivaqiy, ya'ni Najmiddin Kubro bo'lgan. Kubraviylik manbalarida suhravardiylik ta'limoti asosida javonmardlik nazariyasi yaratilgani qayd etilgan²⁰.

Pahlavon Mahmud haqida ma'lumot keltirilgan ilk forsiy manba Nuriddin Ja'far Badaxshiy (740/1339-797/1394)ning "Xulosat ul-manoqib" asaridir: "Pahlavon Mahmud Puryo q.s. goh-gohida xarobotga kelgan va xarobotiylar bilan tavba so'zlarini aytib yig'lagan va xarobotiylar ham u bilan qo'shib yig'lashgan. Ko'plab xarobot ahli ertasi kungacha (shu yo'l bilan) gunohdan forig' bo'lishardi".²¹ Ko'rinadiki, Pahlavon Mahmudning xarobotga borishi va u yerda

¹⁸ Қаранг: Ибна-л-Меъмор. Китоб ал-футувва // Шарқи маъмур. - Техрон. 346-саҳ (форс тилида).

¹⁹ Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмardлик тариқати / Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 6.

²⁰ Нажmiddin Кубро. Шарҳи рисолаи одобуз зокирийн /тарж. М.Қодиров. – Урганч: Хоразм, 1997. – Б.3

²¹ Хулосат ул-манoқиб. Таълиф: Нуриддин Жаъфар Бадахший. Ба тасхихи: Доктор Саййида Ашраф Зафар. Маркази таҳқиқоти форсий Эрон ва Покистон. – Ислoмoбoд, 1374/1995. - С.73.

xarobotiylar bilan yig'lashlari malomatiy shaxsning holati yaqindir²². Eron tasavvufshunosi A.Zarrinkubning ushbu qaydi yuqoridagi fikrni tasdiqlashi mumkin: "U (Pahlavon Mahmud) ning ahvolidan xabar beruvchi asosiy manbalar – Jomiyning "Nafahot ul-uns", Boyqaro (asli Fanoiy Gozurgohiy – J.M.)ning "Majolis ul-ushshoq", Safiyning "Latoyif ut-tavoyif", Ja'far Badaxshiyning "Xulosat ul-manoqib"idan tashqari, Hidoyatning "Safarnomai Xorazm" asari hamdir..."²³ Xususan, Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min-hazarot ul-quds" tazkirasining Xorazmda tarjima qilingan nusxasida malomatiylar haqida shunday yoziladi: "Va ammo malomatiyya xalqlaredurkim, ixlos ma'nisining rioyasi va sidq qoidasining muhofazasida jahdi tamom qilurlar. Toatni ixfosida (yashirishda) va hayratni xalqdin yoshurun etmaklikda mubolag'a qilurlar, balki vojib bilurlar, boinki hech daqiqani beamali solih o'tkarmaslar. Tamomi fazoyil va navofilga tamassuk etmakni o'zlariga lozim tuturlar. Ixlosning ma'nisining tahqiqidin batamomi avqotda bahra olurlar".²⁴

Kamoliddin Husayn Gozurgohiyning "Majolis ul-ushshoq" tazkirasida Pahlavon Mahmud zikri saj' usulidagi muqaddima, uning laqabiga mos oyat (Sod, 45) so'ngra Pahlavonning Hindiston kurashchisi bilan bo'lgan voqealari tasvirlangan ikkita hikoyat beriladi. Fanoiy g'azalini keltirib o'tadi; ayni shu g'azal maqta'idagi taxallus tufayli Pahlavon Mahmud Qitoliydan tashqari, Fanoiy taxallusini ham qo'llagan deyishga asos tug'iladi. Tazkirada Pahlavon laqabining to'g'ri berilishi, rijolu-l-g'ayblarga o'g'il sifatidagi holati (Puryor), vafoti sanasi kabi ma'lumotlar to'g'ri keltirilgan.

Faxriddin Ali Safiyning "Latoyif ut-tavoyif" asarida Pahlavon Mahmud haqida qisqa, lekin muhim ma'lumot keltirilgan. 1532-33- yillarda yozilgan tazkiraning "Oriflar va shoirlarning vafoti paytida badiha tarzida aytganlari" nomli sakkizinchi faslida Pahlavon Mahmud Puryor vafoti payti behushlik to'shagida shogirdlariga bir qit'a aytgani keltirilgan.

Abulmuhsin Muhammad Boqirning "Tazkirai Muhammad Boqir" asari (951/1544)da Alisher Navoiy tazkirasidagi ma'lumotlar fors tilida aynan takrorlangan.

Bobning ikkinchi fasli "***Pahlavon Mahmud va futuvvatga oid turkiy manbalar tahlili***" deb nomlangan. Futuvvat tariqatidagi avliyolar va Pahlavon Mahmud Puryorvaliy haqida batafsil va keng ma'lumot beruvchi ilk turkiy manba Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat" tazkirasidir. Undagi valiylar tarjimaiy hollari, yashagan davri, ustozlari va faoliyatini tahlil qilish natijasida javonmardlik – futuvvat maslagi avliyolar orasida ikki bosqichda taraqqiy etgani aniqlandi:

1. Futuvvatning ilk bosqichi: IX-XI asrlar.
2. Axiylik bosqichi: XII – XIII asrlar.

"Nasoyim ul-muhabbat"dagi valiylardan IX-X asrlarda yashagan Abu Turob Naxshabiy, Abu Hafs Haddod, Shoh Shujo', Abu Usmon Hiraviy yashagan davri

²² زرین کوب، عبد الحسین، جستجو در تصوف ایران، تهران امیر کبیر، 1358، ص 352

²³ جستجو در تصوف ایران. تألیف: دکتر عبد الحسین زرین کوب. تهران: امیر کبیر چاپ ششم 1379. – Б. 353.

²⁴ Таржимаи Нафаҳот ул-унс / Охунд Раҳмонкули қори тарж. ЎзРФАШИ, қўлёзма № 7286 (1304/1886 йили Мухаммад Раҳимхон Феруз топишириғи билан тайёрланган, 566 Ұрақ).

hamda faoliyatiga ko‘ra javonmardlik tariqatining birinchi bosqichiga mansub hisoblanadi. Bu bosqichda, asosan, futuvsat axloqi haqidagi hikmatlar aytilgan, javonmardlik yuksak darajadagi xulqlar majmui sifatida baholangan. Bu davr Xuroson va Iroq hududida yashagan shayx va valiyar adabiy faoliyatida namoyon bo‘lgan.

Ikkinchi bosqich (XII-XIII asrlar) futuvsatning axiylik tashkilotlari tuzila boshlagani bilan xarakterlidir. Bunday uyushmalarning tuzilishi jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar keskinlashuvi; Abbosiylar xalifaligining davlatni mustahkamlash maqsadidagi harakatlari, mo‘g‘ullar bosqini, o‘lkalarda iqtisodiy ahvolning yomonlashishishi kabi vaziyatlar bilan izohlanadi. Adabiy manbalarda Pahlavon Mahmud Najmiddin Kubroning ma’naviy farzandi sifatida mo‘g‘ul zulmidan ozor ko‘rgan xalqqa insonparvarlik yordamlari ko‘rsatgan axiy sifatida gavdalanadi.

Olohyor ibn Xudoyberdi Mahzunning 1310-1313/1892-94-yillarda yozilgan “Riyoz ul-zokirin” tazkirasida “Pahlavon Mahmud Shayx Kubrodan botiniy irshod olgan, “nafas o‘g‘li” maqomidagi uvays, modarzod avliyo edi” va uning xirqa piri bo‘lgani, tarbiyalagan zotlar haqida ma’lumotlar kam uchrashi qayd etilgan. Tazkirada Pahlavon Mahmud haqida: “Zikri qutb ul-aqtob Pahlavon Mahmud ota (r.a.). Ul hazratni uvaysiy derlar va ham ummiy, ya’ni modarzod avliyo erkanlar” deyilgan²⁵. Pahlavon Mahmudning javonmardlik bilan aloqasini uning pahlavonligi, kurashchilar peshvosi bo‘lganligi bilan emas, balki tariqatda kubraviylikni mustahkam tutgani bilan izohlash kerak. Tabiiyki, tasavvufda muridning zohiriy murshidlari bo‘lishi ham talab qilinadi. Bizningcha, Xivada dastlab Pahlavon Mahmudni o‘qitgan va uning botiniy salohiyatini sezgan shaharning qutbi, valiysi bo‘lgan Sayyid A’louddin o‘z ixtiyori bilan Xivani tark etgan va ko‘proq Makkada muxojirlikda yashagan. Chunki ulug‘ shayx Najmiddin Kubro tomonidan Xivaga qutb sifatida Pahlavon Mahmud yuborilgan edi. Xivadagi mazkur avliyoning maqbarasi devorlariga yozilgan katibalar bu fikrni tasdiqlaydi:

Qutb ul-aqtob Pahlavon Mahmud
Podshohi mamoliki tajrid.
Gavhari koni qiblai irfon.
Durri yaktoi qulzumi tavid.²⁶

Ikkinchi bobning “*Pahlavon Mahmud va futuvsatga doir manqabaviy manbalar*” deb nomlangan uchinchi faslida Pahlavon Mahmudga doir manoqiblar tahlilga tortildi. 1296/1878-yilda yozilgan “Hazrati Pahlavon ota (r.a.)” kitobida yozilishicha:

Alarga bo‘ldi maxlas bir bo‘yoqchi
G‘ulomi erdi, yodini qiloqchi.
Mango amr ayladi maktub qilg‘il,
Ko‘ngulga qissasin marg‘ub qilg‘il²⁷.

²⁵ "رياض الأكرين" الله يار بين خدابردى المتخلص بيل محزون. ЎзРФА Қорақалпоғистон бўлими, Тарих, археология ва этнография институти фонди қўлёзмаси. А.Идрисов шахсий фонди.

²⁶ Рубоиёти Ҳазрат Паҳлавон Маҳмуд ота. ЎзРФАШИ, № 5103. 1^а-варақ.

²⁷ Ҳазрати Паҳлавон ота (р.а.) китоби. ЎзРФАШИ. Сақл. рақами 2069.

Ushbu manqib Pahlavon Mahmudning hunarmandlar peshvosi ekanidan, unga barcha hunar ahli, xuddi polvonlar kabi ehtirom ko'rsatganidan dalolat beradi. Ushbu manqib futuvvatga oid asar ekanligi, birinchidan, futuvvatnomalar aynan biror hunar egasi tomonidan hunarmandlar sohibining xotirasi uchun yozilishi, ikkinchidan, futuvvatnomalar, asosan, ma'lum bir shaxs hayoti, faoliyatiga bag'ishlanishi va uchinchidan, futuvvatnomalarda ma'lum sohaning duoyu viridlari, o'sha kasb egalarini yodga olish uchun nima qilish lozimligi aytilishi va to'rtinchidan, esa muallifi noma'lum bo'lishi singari holatlar bu manqibni futuvvatnoma ekanini ko'rsatadi.

“Manqabati Hazrat Pahlavon Mahmud alayhi-r-rohma var-g‘ufron” manzumasida shunday yozilgan:

Qutbi falak, murshidi ahli jahon,
Ot anga Mahmudu laqab Pahlavon...

Bor edi Piryorvaliy volidi,
Xivaq aro marqadi ham mavlidi...

Karam qilib, ravnaq bozorima,
Yetkur o‘zing, ne esa darkorima.

Yana madad aylang amirimga ham,
Kim erur ul mehri sipehri karam.

Futuvvatnomaga xos shartlar qatorida manqibdagi “bozorimga ravnaq ber” degan Yaratganga murojaati, asarni noma'lum buxorolik kosib tomonidan (amirga madad) yozilishi, Pahlavon Mahmud, ko'pincha, kosiblar piri sifatida yodga olinishi manqibni futuvvat manbalari qatoriga kiritishga asos bo'ladi.

Tariqatga oid manqiblarda Pahlavon Mahmud nomi zikr qilinadi. “Maqomoti Naqshbandiya” asarida Pahlavon Mahmud haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Hazrat Naqshband (q.r.) izdoshlaridan Solih ibn Muborak Buxoriyning “Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband” nomi bilan mashhur “Anis ut-tolibin” asaridagi Pahlavon Mahmud haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: “Xojamiz ul darvish huzuriga otlanayotgan vaqtda Pahlavon Mahmud (a.r.) Pakkayor tobe'inlaridan biri ul hazratning xizmatlariga bel bog'ladi (ya'ni, ularga yo'ldosh bo'ldi). Hazrati Xoja Fathobodga yetib, ul aziz darvish bilan uchrashganlaridan biroz fursat o'tgach, men botinimda Xojaning menga iltifot ko'rsatib, ichki aloqaga kirishishni inoyat qilayotganini sezdim. Shu paytda Pahlavon Mahmud Pakkayorning ul darvishi turib, o'z kafshini tashqariga chiqarib qo'ydi va aziz darvish nazru niyozidan o'tdi (ya'ni, o'z hurmatini ko'rsatmoqchi bo'ldi)...”²⁸ Matnda kelgan Hazrati Xojadan murod – Shayx Bahouddin Naqshband (q.r.), aziz darvishdan murod – Shayx Shamsiddin Kulol (q.r.) hazratlaridir. Manba Bahouddin Naqshband hamda Pahlavon Mahmud izdoshlaridan, ya'ni kubraviylik

²⁸ Мақомоти Ҳазрат Хожа Нақшбанд алайхирроҳма ва-р-ризвон. Тасниф: Солиҳ бин Муборак ал-Бухорий. ЎзРФАШИ, қўлёзма № 8288. 86⁶ - саҳифа.

va naqshbandiylik tariqatlarining o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lganiga guvohlik beradi. Pahlavon Mahmud laqablari to‘g‘risida ushbu tazkirada yana quyidagicha yozilgan: “Ba‘zilar Piryor (پيريار) ning o‘rniga Pakkayor (پکه يار) yozibtururlar. Chunonchi, hazrat Navoiy va ham Tohir Eshon – ul ikki aziz ham tazkiralarda Pakayor deb yozibtururlar. Bu zamonlarda ahli Xivaq Piryor deb, Pakkayorni bilmaslar. Faqir ul vajhdin iborati soniy (ikkinchi)ni ixtiyor qilib yozduq²⁹”. Demak, tazkira muallifi e’tirofiga ko‘ra, keyingi vaqtlarda, ya’ni XIX asrlarga kelib Pahlavon Mahmudning Pakkayor laqabi xalq orasida ishlatilmagan.

“**Pahlavon Mahmud va javonmardlik**” deb nomlangan uchinchi bobning “**Pahlavon Mahmud va javonmardlik ramzlari**” nomli birinchi faslida dastlab Pahlavon Mahmudning “Xiva langari” deb nom olishi, ya’ni kemaga monand Xivaga ma’naviy pir, langar bo‘lib Pahlavon Mahmud yuborilishi oldindan bashorat qilingan, rijolu-l-g‘ayblar dunyo muvozanatini saqlab turgani kabi Pahlavon Mahmud Xorazmning ma’naviy va iqtisodiy muvozanatini ushlab turishi uchun yuborilgani izohlangan.

Takyagoh suyaniladigan maskan, darvishlar uchun ham, mahalliy aholi uchun ham, musofirlar uchun ham suyanish, ishonish mumkin bo‘lgan makondir. Ostona ham takyagoh singari polvonlar kurash tushadigan, javonmardlar yashash joyi bo‘lgan. Bu guruh toifa javonmardlar shaharlarda o‘zlarining yig‘ilishi uchun “langar”, “takya” va “ostona” deb nomlangan bir qancha yig‘ilish maskanlarini tashkil etishgan. Pahlavon Mahmud bir ruboiysida takyagohni ramziy ma’noda vafo arboblarning manzilgohi, deya ta’riflaydi:

In xona, ki manzilgahi arbobi vafost,
Har lahza zi fayzi Haq dar vujud saxost.
Har kas, ki qadam nehad dar-u az sari sidq,
Xoki qadamash mardumaki diydai most.

Bu uyda makon tutgan emish ahli vafo,
Bu uyga yog‘ilgay Haqdan fayzu safo.
Bu uyga qadam qo‘ysa kim ixlos yuzidan,
Bo‘lsin qadamiga jonimiz sadqa, fido! (E.Ochilov tarj.)

Tariqatda kiyimlar, xususan, kuloh kiyishning o‘ziga xos ramziy ma’nolari bo‘lgan. Birinchidan, kulohning qaysi matodan ekanligiga e’tibor berilgan. Ikkinchidan, kulohning qanday shaklda tikilishi tariqat yo‘liga kirgan sufiyning darajasi, maqsadi va tariqatini ham bildirib turgan. Sayyid Ali Hamadoniy ham kulohbof bo‘lgani bejiz aytilmagan. “Xulosat ul-manoqib” kitobida Hamadoniy qalpoq tikish bilan tirikchilik qilishni boshlagani, uning aksariyat muridlari ham biron kasb egasi yoki hunarmandlardan bo‘lishgani haqida ma’lumot bor. Shuningdek, asarda Sayyid ali Hamadoniy tufayli Kashmirda hunarmandchilik borgan sari rivojlanib ketgani qayd etilgan.

Javonmardlarda belbog‘ bog‘lash biror tariqatga kirish yoki mas’uliyatni bo‘yniga olish kabi ramziy ma’nolarni anglatgan. Ayrim o‘rinlarda belbog‘

²⁹ "رياض الأكرين" الله يار بين خدايبردى المتخلص بيل محزون. ЎзРФА Қорақалпоғистон бўлими. Тарих, археология ва этнография институти фонди қўлёзмаси.

bog‘lash yoki shadd bog‘lash deb ham beriladi. Husayn Voiz Koshifiy shaddning ma’nosini shunday izohlaydi: “birinchisi – mustahkamlash, asosni yaratish; ikkinchisi – hujum qilish; uchinchisi – chopish; to‘rtinchisi – quvvatlantirish; beshinchisi – quyoshning ko‘tarilishi”.³⁰ Zero, belbog‘ bog‘lash yoki shadd bog‘lash solihning o‘z ishiga ustivorligini ko‘rsatadi, mardlik belbog‘ini bog‘lagan ahdiga vafo qiladi.

Uchinchi bobning *“Pahlavon Mahmud va “Kanz ul-haqoyiq” masnaviysi xususida*” deb nomlangan ikkinchi faslida “Kanz ul-haqoyiq” asari tahlilga tortildi. XIX-XX asrlarga oid forsiy manbalarda Pahlavon Mahmud ruboiylaridan tashqari, uning “Kanz ul-haqoyiq” masnaviysi aytiladi. Bu asar haqida dastlabki ma’lumot Kamoliddin Husayn Gozurgohiyning “Majolis ul-ushshoq”ida ma’lumot keltirilgan. Mazkur asarni nashrga tayyorlagan G‘ulomrizo Tabotaboi Majid shunday yozadi: “Shayx Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” masnaviysi vaznida bo‘lib, lekin unchalik chuqur tahlilga ega bo‘lmagan asar. Bu masnaviyini Shayx Attor va Shayx Mahmud Shabustariyga ham nisbat beradilar, ammo ustoz Zarrinkubning marhum Sa’id Nafisiy tadqiqotlarida bu manzamani Attor va Shabustariyga nisbat berilgan qat’iy rad etilgan. Marhum Qazviniy mulohazalaridan “Kanz ul-haqoyiq” h.q. 703-yilda bitilgani, qo‘lga kiritilgan 13 ta baytidan uning Nizomiy “Xisrav va Shirin” singari hazaj bahri vaznida yozilgani ma’lum bo‘ladi”³¹. Bundan ma’lumki, nashrga tayyorovchi ham asarni aniq Pahlavon Mahmudga mansubligini taxmin qilgan va boshqa olimlarning fikriga tayangan holda xulosa chiqargan. Erondan oldirilgan qo‘lyozma fotokopiyasidagi fihristda uni 1974-yili qayta ko‘rib chiqilgani va “Kanz ul-haqoyiq” muallifi degan joyiga “ma’lum bo‘lmadi” deb yozib qo‘yilganini uchratdik. Ushbu masnaviyning ko‘proq diniy-shar’iy masalalariga bag‘ishlangan, asarning “Fi-manqabati Aliy (k.v)” bo‘limida o‘qiymiz:

Aliy bud on, ki o‘ sheri Xudo bud,
Bailmu diyn zuhdi Mustafo bud.

Az on chun nomi humoyunash Aliy bud,
Ki Haq ro az dilu az jon valiy bud.

Aliyyu Mustafo budand yak nur,
Aliy az Mustafo hargiz naband dur.
Az-on guftash axiy lahum dar xun
Badon nisbat ki Musorost Horun.

Birav, joni padar, bishnav zi Mahmud,
K-az inash juz haqiqat nest maqsud.

³⁰ Хусайн Воиз Кошифий. Фугувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б.32.

³¹ مجالس العشاق نویسنده: امیر کمال الدین حسین گازرگاہی به کوشش: غلامرضا طباطبائی مجد چاپ دوم-1376/1997 انتشارت زرین، ص. 198

“Kel ey, otasining joni, Mahmuddan eshit: maqsadim haqiqatdan bo‘lak narsa emas” bayti Mujtabo Karamiy monografiyasida keltirmagan. Aslida ushbu bayt uning muallifini ko‘rsatib beruvchi ochqichdir. Zero ko‘pchilik manbalarda mazkur Mahmud ismi sababli asarni Pahlavon Mahmudga nisbat berishgan. Vaholanki, Eron saytlarida mazkur bayt muallifi sifatida Mahmud Shabustariy nomi va asari chiqadi³². Pahlavon Mahmud ruboiylarida husni taxallus “Bishnav zi Mahmudi Puryorvaliy” shaklida ikkita so‘z orqali keltiriladi. Bu holat ham yuqoridagi Mahmudning Pahlavon Mahmud emasligi, aksincha asar Mahmud Shabustariy mansub ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Javonmardlik harakati va xalq qissalari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobining birinchi fasli “*O‘zbek adabiyotida futuvvatnomalarisolarining yozilishi*” deb nomlanadi. “Futuvvatnoma” yoki “Kitob al-futuvva” javonmardlarning nazariy va amaliy qonun-qoidalarini bayon etuvchi hamda ularga o‘rgatuvchi risola hisoblanadi. Bunday risolalar jamoaga yangi kirgan javonmardlar uchun dasturu-l-amal yoki o‘qish kitobi vazifasini bajargan, hunarmandlarga o‘z ustozlari merosini tanitish uchun xizmat qilgan. O‘zbek adabiyotida ko‘proq muayyan toifa-guruh-jamoaning dasturu-l-amali sifatida yozilgan futuvvatnoma - risolalar keng tarqalgan. Futuvvatnoma mazmunidagi risolalarda muayyan kasbni ilk boshlab bergan ustozlar zikri, o‘sha kasb-hunarning ahamiyati bitilgan. Xalq orasida o‘qiladigan risolalar “Nurnomai sharif” bilan boshlangan.

Futuvvat qo‘lga kiritilgan narsani qaytarib, boshqalarning foydasi uchun ishlatmak, qo‘lga kiritilmagani uchun esa shukur qilmoq ekan, shu ma’noda dastlab futuvvat xususida so‘z yuritgan mutasavvif Imom Ja’far Sodiqr³³. Chunki, o‘zbek tilida yozilgan xalq kitoblari va risolalarining ko‘pi Imomi Ja’far Sodiqr ismini keltirish bilan boshlanadi. Jumladan, “Risolai dehqoniy”da shunday yozilgan: “...ogoh va dono bo‘lg‘ilki, ul sultoni avliyo va darvishi anbiyo orifu oshiq, ya’ni Hazrat Imom Ja’far Sodiqr va rahnamoi muvofiq rivoyat qilurlarkim, Hazrat Odam a.s.din to janobi Hazrat Muhammad s.a.v.ni zamoni saodatlarig‘acha yetti ming yetti yuz yetmish yetti dehqon o‘tubdurlar; hammalari oqil va dono kishtlari muvofiqi risola va sohibi duo erdilar”.³⁴ Xalq qissalari boshlanmasida Imom Ja’far Sodiqr nomini keltirishning sababini ikki jihat bilan isbotlash mumkin. Biri shuki, Turkiya diyonat vaqfi tomonidan tayyorlangan “Islom ensiklopediyasi”da yozilishicha, “Ali Shomiy an-Najjor futuvvatdan ilk bahs etgan so‘fiyni Fuzayl ibn Iyoz (vaf. 187/803) ekani va uning “do‘stlarning qusuriga boqmaslik futuvvatdir” hikmatini “Nash‘atul-fikrul falsafiy fil-islom” asariga tayanib keltirsa-da, undan oldin Ja’far Sodiqrning (vaf. 148/765) “bizningcha, futuvvat qo‘lga ilingan narsani boshqalar foydasi uchun ishlatmak, qo‘lga tushmagani uchun esa shukur etmoqdir” jumlasini Qushayriy risolasiga asoslanib beradi. Shuningdek, Ibn al-Qayyum al-Javziya ham “Madorij us-solikin” asariga

³² Қаранг: Маснавийдаги “Дар таҳқиқи намоз гуяд” бўлими шу ҳаволада берилган:

https://siminsagh.net/article/%D8%B4%DB%8C%D8%AE_%D9%85%D8%AD%D9%85%D9%88%D8%AF_%D8%AD%D9%82%D8%A7%DB%8C%D9%82/post/1131/

³³ Қаранг: <https://islamansiklopedisi.org.tr/futuvvet>

³⁴ Рисолаи деҳқоний / Мажмуаи рисола. Лит. Ст. Ташкентъ. – С. 27-28.

tayangan holda futuvvatdan ilk bora so‘z ochgan kishi Ja’far Sodiq ekanini aytadi³⁵”. Bizningcha ham, aynan futuvvatdan birinchi bahs yuritgan shaxs hazrat Ja’far Sodiq bo‘lgan, buni esa o‘zbek xalq kitoblaridagi mazkur boshlanma ham dalillaydi. Ikkinchisi shuki, Ja’far Sodiq to‘g‘riso‘zligi bilan shuhrat qozongan: “Ja’far Sodiq r.a. hijriy 83- (702-y.) sanada Madinai Munavvarada tavallud topganlar va hijriy 148-sanada o‘sha yerning o‘zida vafot etganlar. Ja’far Sodiq o‘zlarining “sodiq” degan laqablariga juda ham mos edilar. U kishi hayotlarida hech qachon yolg‘on gapirmaganliklari uchun shu laqabni olgan edilar³⁶”. Demak, o‘zbek xalq qissalarining boshida ul zotning ismini keltirishning yana bir sababi uning to‘g‘riso‘z bo‘lgani va qissada asosan to‘g‘ri voqealar ifodalanishi lozimligiga ishora edi.

“Ulamolar tomonidan ja’fariya mazhabining asoschisi sifatida qadrlanadigan Imom Ja’far as-Sodiq (r.a.) ahli bayt tomonidan juda chuqur hurmatga ega bo‘lib, din bilimlari bilan bir qatorda fan ilmlarida ham so‘zlari dalil edi. Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida eslab o‘tilganidek, Imomi A’zam Abu Hanifa (r.a.) ham bu zotning suhbatlariga ikki yil qatnab, botiniy va zohiriy ma’rifat manbasidan ilm hamda avliyolik yo‘lida ko‘p istifoda qilgan. Haqiqiy islom olimlari dinimizni hech o‘zgartirmasdan bugungacha olib keldilar. Bu olimlardan iymonu islom bilimlarini o‘rgatganlari “mutakallimiyn”, ibodatlar haqida dars berganlari “fuqaho”, qalb orqali bajo keltiriladigan va saqlanadigan ishlarni o‘rgatuvchi ilmga “tasavvuf”, bu ilmning olimlariga mutasavvifin deyiladi. Imomi Ja’fari Sodiq hazratlari bulardan uchinchi ilmni ta’lim qilgan zotlardan sanaladi³⁷”. Bu fikrlarning isboti Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridir. Zero unda birinchi avliyo zot sifatida Ja’fari Sodiq ismi keltiriladi. Asarning Eronda Muhammad Iste’lomi tomonidan Turkiyaning Piri Hudoyi kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy nusxa asosida tayyonlangan nashrida shunday keltiriladi: “On sultoni millati Mustafo, on burhoni hujjati nabaviy, on olimi siddiq, on olami tahqiq, on mevai dili avliyo, on go’shai jigari anbiyo, on noqili Ali, on vorisi nabiy, on orifi oshiq – Abu Muhammad Ja’fari Sodiq – r.a.”³⁸ Muallif ushbu o‘rinda “on noqili Ali” jumlasini bilan Ja’fari Sodiqning futuvvat ahli qissalarining noqili ekaniga ishora qilgan. Asarning Mirzo Kenjabek tomonidan qilingan muxtasar tarjimasini 1997 yilda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti tomonidan chop etilgan³⁹.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda toshbosma – litografik nashriyotlarning paydo bo‘lishi futuvvatnoma-risolalarning chop etilishida muhim bosqich bo‘ldi. Bunday risolalar, asosan, diniy-ma’rifiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, xalq kitoblari shaklida majmuai rasoyil va nurnoma shaklida keng tarqalgan. Hozirda O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar

³⁵ Islam ansiklopedisi. 13.cilt. – Istanbul, 2005. – S. 259.

³⁶ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Нилol-Nashr, 2021. – Б.94-95.

³⁷ Ҳазрати Аваз Шайх бобо / Нашрга тайёрловчи Абдулла Аҳмедов. –Т.: “Наврўз”, 2015. – Б.29-30.

